

## MILLIY QADRIYATLAR YOSHLAR TARBIYASINING AJRALMAS QISMI

*Rahmatova Nargiza Dolibayevna*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*“Musiq nazariyasi va metodikasi” kafedrasi dotsent v.b.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosati hamda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda musiqa san’atining ahamiyati muhim ekanligini yoritgan.

**Kalit so‘zlar:** jamiyat, yoshlar, siyosat, ta’lim, tarbiya, yuksak ma’naviyat, ijtimoiy faollik, ma’naviy kamolot, taraqqiyot, mustaqil dunyoqarash.

## НАЦИОНАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ

Рахматова Наргиза Долибаевна

Ташкентский государственный педагогический

университет имени Низами

Кафедра "Теория и методика музыки" и.о.доцента

**Аннотация:** В данной статье автор освещает важность государственной молодёжной политики страны и значения музыкального искусства в повышении духовности молодого поколения.

**Ключевые слова:** общество, молодежь, политика, образование, воспитание, высокая духовность, общественная активность, духовная зрелость, развитие, независимое мировоззрение

## NATIONAL VALUES ARE AN INTEGRAL PART OF YOUTH EDUCATION

Rakhmatova Nargiza Dolibaevna

Tashkent State Pedagogical

University named after Nizami

Department of "Theory and Methodology of Music"

acting Associate Professor

**Annotation:** In this article, the author highlights the importance of state art policy in the country and the role of music in raising the morale of young people.

**Key words:** society, youth, politics, education, upbringing, high spirituality, social activism, spiritual maturity, development, independent worldview.

Har bir jamiyatning, unda yashaydigan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma’lumki, ta’lim va tarbiya uyg‘unligi milliy taraqqiyotga erishish kafolatidir. Har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki, ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ma’naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar. Zero, jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan.

Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Chunki, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir. «Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Yoshlar tarbiyasi mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik lozim. Bugungi kunda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi. Shuningdek, yoshlar tarbiyasi kabi mas’uliyatli vazifaning oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligida, tizimli asosda olib borilayotganligi tarbiya degan tushunchalar, to‘g‘rirog‘i tarbiya bilan shug‘ullanish jamoatchilik ishi bo‘lib, ya’ni ota-bobolarimiz iborasi bilan aytganda, “Bir bolaga yetti mahalla – ota-ona” dir.

Ma’lumki, Prezidentimiz ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalari davlat siyosati darajasida e’tiborga olindi.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakllanib kelgan asl milliy va diniy qadriyatlarimizni ahamiyati nechog‘lik muhim ekanini ko‘rsatib bermoqda. Zero, ertangi farovon hayot jamiyatni mukammal axloq tamoyillari asosida barpo qilish, oilada barkamol farzand tarbiyasi, uning jismonan baquvvat, ruhan tetik, ma’nan yetuk, aqlan va axloqan go‘zal bo‘lib yetishi bilan belgilanadi.

Yoshlarning o‘z milliy zamini hamda ildizlarini chuqur bilishi va ulardan g‘ururlanishi tom ma‘noda vatanparvar bo‘lib shakllanishida muhim omillaridan biridir. Bu borada yoshlar tarbiyasida musiqa san‘atining ham alohida o‘rni bor. O‘tgan davr mobaynida go‘zal milliy ohanglar, milliy an‘analar tiklandi. Ulug‘ musiqashunos olimlarning ishlari o‘rganildi, san‘atimiz darg‘alari davlatimiz tomonidan yuksak mukofotlar bilan taqdirlandilar. Ma‘naviy sohada o‘z ifodasini topgan musiqa tarbiyasidagi yutuqlar xalqimiz, millatimizning axloqi va madaniyatida, dunyoqarashida ro‘y bergan sifat o‘zgarishlari mustaqillik ilk bosqichining muvaffaqiyati hisoblanadi. Musiqa va yoshlar tarbiyasiga hissa qo‘shayotgan mutaxassislar qalbidagi milliy g‘urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg‘ulari yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shuning uchun ham, ta‘lim tizimida mehnat qilayotgan har bir pedagog tarbiyani ta‘lim bilan birga barobar holda olib borish yo‘lida zamonaviy usuldagi dars samaradorligiga erishishga harakat qilmoqdalar.

Ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda xalq musiqa merosi tarkibidagi folklor kuy-qo‘shiqlari va maqomlarning yuksak tarbiyaviy-ta‘sirchanlikka ega ekanligi, ularni yoshlar ma‘naviy olamiga chuqurroq singdirish, badiiy-estetik tarbiyasida to‘g‘ri va maqsadli foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishishi mumkinligi asoslab berilgan. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirish maqsadga muvofiqdir: “Agar biz asl, haqiqiy san‘atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san‘atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san‘atni, madaniyatni ko‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo, mumtoz maqom san‘atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatimizni safarbar etishimiz zarur”[1].

Haqiqatdan ham xalq musiqa merosida eng ommaviylik kasb etuvchi qo‘shiqchilik ijodiyotiga oid folklor, mumtoz va maqom asarlarining badiiy mazmuni tahlil qilinsa, ularda “xalq donishmandligi”ning eng ulug‘ va oliyjanob g‘oyalari mujassamlanganligini ko‘rish mumkin. Masalan, folklor yo‘nalishidagi xalq qo‘shiqlari o‘z mazmunida xalq hayotining eng muhim, o‘ziga xos turli ko‘rinishlari va qirralarini aks ettiradiki, musiqa darslarida ularni o‘rganish o‘quvchi-yoshlarni milliy o‘zligini anglashlarida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz musiqa merosidagi eng mashhur va qadrli bo‘lgan mumtoz va maqom ashulalari mumtoz adabiyotimizning eng sara she‘riy namunalariga bog‘langan musiqiy ohanglar jo‘rligida ijro etilib, avloddan-avlodga o‘tib, hozirgi kunda ham o‘z ko‘rki va qimmatini yo‘qotmay kelmoqda. Bunday qo‘shiqlarni har qanday holatda ham inson hissiyotiga badiiy emotsional ta‘sir ko‘rsatishi haqida buyuk Sharq allomalari juda ko‘p va xo‘b fikrlarini aytib o‘tishganligi ham haqiqatdir.

Xulosa qilib aytganda, musiqa san’ati insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, kishilarni yaxshilik qilishga undaydi. Shuning uchun ham, musiqaning yoshlar tarbiyasidagi o’rni beqiyos bo’lib, uning tarbiyaviy ta’sir kuchi, bugungi kundagi ahamiyati o’sib kelayotgan yosh avlodning musiqaviy dunyoqarashini shakllantirish bilan ma’naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda ham katta ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalqaro maqom san’ati anjumani ochilishidagi nutqi//www.gazeta.uz, 2018 yil 6 sentyabr
2. Mustaqil O‘zbekiston tarixining dastlabki sahifalari (Davriy to‘plam №3). – T.: Sharq, 2000
3. S.G‘oziyev Ma’naviy komillik sirlari. – T.: Istiqlol, 2005
4. Raxmatova N.D. O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8022449>, 2023